



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> January, 2025

## **“O‘QUVCHI QIZLARNI OILAGA TAYYORLASHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGINING PEDAGOGIK JIHATLARI”**

Xaitmamatova Saodat Qurbon qizi  
Alfraganus Universiteti Pedagogika va  
psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada o‘zbek oilalarida qizlarga xunar o’rgatish, qiz bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ilm egallashiga ko’mak berish, buyuk muhaddis allomalarning oilaviy tarbiya xususida bildrgan fikrlari va o‘zbek oilalarida juftiklar o’rtasida kuzatiladigan salbiy-axloqiy xususiyatlar

**Kalit so‘zlar:** oila, mahalla va maktab hamkorligi, madaniy boylik, oila, ruhan barkamol, axloq, ilm egallash, kasb-hunar

### **Kirish:**

Jahonda qizlar va ayollar faolligini ta’minlash masalasi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari ma’lumotlariga ko‘ra, ayollar va qizlarning kamsitilishiga qarshi ko‘plab islohotlar amalga oshirilgan, ammo bu sohada yana ko‘p ishlar qilinishi kerakligi aytilgan<sup>1</sup>. Bugungi kunda qizlar va ayollar jins, gender, yoshiga qarab tizimli diskriminatsiya, kamsituvchi ijtimoiy me’yorlar va zararli stereotiplardan kelib chiqib, ularning ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir qiluvchi to‘siq va muammolarga duch kelishda davom etishmoqda. Bunday muammolarga qizlar va ayollar o‘z huquqlarni yetarli darajada bilmasligi, oila, jamoa va jamiyatda doimiy gender asoslarini kamsitish, zo‘ravonlik va bularning barchasini qizlar va ayollar oddiy hol sifatida qabul qilishi kabilar kiritib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 820 – sonli qarorida Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi hamda Yoshlar ishlari agentligining bo‘limlari huzurida Yoshlarni oilaviy hayotga

<sup>1</sup> <https://www.ohchr.org/en/stories/2022/09/despite-being-forefront-activism-women- still-face-barriers>



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

tayyorlash markazlarini tashkil etish to‘g‘risidagi vazifalar yuklatilgan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalarida taxsil olayotgan talaba qizlar o‘zining yo‘nalishining yetuk mutaxassisini bo‘lishi bilan bиргаликда mohir pazanda, hamshira, bir so‘z bilan aytganda oilaga tayyor bo‘lib yetishadi! Ya’ni, univesitet rahbariyati va xotin – qizlar masalalari bo‘yicha maslahat Kengash raislari rahbarligida “Talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash” kurslari tashkil etilgan.

## **Dolzarbliги:**

Dunyoda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni himoya qilish, ijtimoiy hayotda o‘zlarining faolligini rivojlantirishga va xotin-qizlar kamsitilishining oldini olish borasida ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyat yuritmoqda. “Plan International” – bu gender tengligi uchun kurashayotgan tashkilotlardan biri bo‘lib, u bolalar huquqlari va qizlar tengligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib boradi<sup>2</sup>. U qizlarga nisbatan kamsitish, zaiflik va chetlanishning asosiy sabablariga qarshi kurashish uchun yoshlar, bolalar va jamoalar bilan yaqindan ishlaydi. “Global Fund For Women” – ayollar uchun global jamg‘armasi, shuningdek, “Rise Up” ayollar va qizlarga mahalliy sarmoya kiritish, tashkilotchilik va faolligini rivojlantirish borasida ishlarni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda ham amalga oshirilayotgan islohotlarda xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, “2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur”<sup>3</sup>da bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish borasida bir qancha muammolar borligi kiritib o‘tilgan. Bu kabi muammolar sirasiga hududlarda yosh qizlarning iqtidorlarini o‘z vaqtida aniqlashtirib, ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ishlari aniq bir tizim asosida tashkil etilmagani, shuningdek, ushbu jarayonda o‘quvchi-qizlar uchun uslubiy va amaliy yordamning tashkil etilmagani kiritilgan.

Balog‘at yoshiga qadam qo‘ygan har bir qiz bola shirin orzulari daryosida oila degan kemani boshqarishni niyat qilishi tabiiy hol hisoblanadi. Ana shu kichik,

<sup>2</sup> <https://www.humanrightscareers.com/25>

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh. 2022-yil 1-martdagi «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-81-sonli farmoni.



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

ammo ulkan yukni tortuvchi kemani boshqara olishiga qanchalik tayyorligiga o‘zini ishonchi yetadimi yoki yo‘qmi eng asosiy masala ana shunda desak xato bo‘lmaydi. Qiz bola oilaga ruhan tayyor bo‘lsa yuqoridagi beka sifatidagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi qiyin kechmaydi. Milliy urf-odatlarimizga ko‘ra ko‘pgina hollarda qizlarni oila qurishiga uni qurshab turgan ijtimoiy muhitning ta’siri katta bo‘ladi. Kuyov tomonidan sovchilar kelishadi, qarindoshlar o‘rtaga tushishadi qarabsizki to‘y bo‘lib ketavermaydi-ku. Milliy qadriyatlarimizga ko‘ra qiz bolani roziligi ham so‘raladi. Yigit bilan qiz bola to‘ydan oldin albatta, uchrashadiriladi. Qiz bola kuyovlikka da’vogar yigit bilan uchrashganda diqqat - e’tiborini jamlagan holda zimdan kuzatishi lozim bo‘ladi.

### **Tadqiqot maqsadi:**

Oila, mahalla va maktab hamkorligi asosida o‘quvchi-qizlaring ijtimoiy faolligini rivojlantirish maqsadida oila psixologiyasi bilan shug‘ulanuvchi mutaxassislarining ta’kidlashlaricha, oila qurishga o‘zida ishonchni shakllantirayotgan qizlar o‘z irodasini tarbiyalay olishi kerak bo‘ladi. Shuni unutmaslik kerakki, iroda tarbiya va mashqqa muhtoj bo‘ladi. Xalqimiz tili bilan aytadigan bo‘lsak, oilaviy hayotda “Suv kelsa simirib, tosh kelsa kemiriladi”. Oila sirini tashqariga chiqarmaslik oila mustahkamligining saqlashga harakat qilishda irodani axamiyati beqiyosdir desak xato bo‘lmaydi. Qiz bola turmush qurbanidan so‘ng uni ijtimoiy muhitdagi mavqeい tubdan o‘zgarishi asosida unga nisbatan boshqalarni va o‘zini o‘ziga bo‘lgan munosati o‘zgarishi tabiiy hol. Mazkur o‘zgarishga nisbatan o‘zida ishonchni shakllantira olgan qiz bola yangi oilasida qisqa muddatda o‘z o‘rniga ega bo‘la oladi. Yangi mavqeiga moslashish albatta, tajriba bilimlarga asoslanadi. Shuning uchun qiz bola o‘zidan oldin kelinlik mavqeiga ega bo‘lganlarni yutuqlari va kamchiliklarini tafakkurida aqlan tahlil qilib o‘zi kelin bo‘lgach amalga oshiradigan xatti-harakatlarini tassavur eta olishi kerak.

### **Tadqiqot obyekti va usullari:**

Oila jamiyatning kichik bo‘g‘ini bo‘lib bugunga qadar turli davrlarni bosib o‘tgan. Oila jamiyatning mustahkam poydevori, davlatning harakatlanishi kuchidir. Shunga ko‘ra oila mavqeい va munosabatlar masalasi doimiy davlat e’tiborida bo‘lib kelgan.



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Barkamol inson haqida uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti haqida g'amxo'rlik mamlakatimizning asosiy maqsadidir. Kishi hislatlari uning mehnatiga ma'naviy, g'oyaviy, psixologik va madaniy boyliklarga munosabatining asoslari oilada shakllanadi. Jamiyat mustahkam, ma'naviy va psixologik axloqiy jihatdan sog'lom oila bo'lishidan manfaatdordir. Oilada qizlarga hunar o'rgatish, o'qitib bilim berish qat'iy yo'lga qo'yilgan. Zeroki, o'qimishli, xunarmand qiz o'z kasbi, bilimi bilan dastlab ota - ona xonadonini obod, saranjom qilib yursa, jufti halolinikiga borganda, oilani boshqarish bilan birga kelajak avlod ta'lim va tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishiga to'g'ri kelgan. Oilaga tayyorligiga o'z ishonchini baholashdan qiyin ish bo'lmasa kerak degan savolga ba'zi qizlarimiz "Ovqat tayyorlashni, pishiriqlar pishirishni, kir yuvish, dazmol qilish, uylarni tozalash, mehmon kutish bilsam bo'ldi, uyog'i bir gap bo'lar", deb o'ylasalar adashadilar. Qiz bola avvalom bor oilaga ruhan tayyor bo'lsa yuqoridagi beka sifatidagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi qiyin kechmaydi. Har bir xonadonda qiz bola farzand dunyoga kelsa, beshikdan to balog'at yoshiga yetishi uni to'g'ri tarbiyalash, har bir ota – onaning fikrini "qiz bola – boshqa xonadoning" fayzi", - degan xayol uning voyaga yetgunicha va uni turmushga bergunga qadar tark etmaydi. Buning uchun hozirgi kunda turmushga chiqayotgan yosh qizlarning zimmasiga katta ma'suliyat yuklanadi. Ushbu ma'suliylatlardan biri bu ma'naviy boylik, saranjon – sarishtalik, fahm – farosat va albatta gigiyenik ozodalikdir. Xalqimizda ushbu hususiyatlar "Har bir qiz bolada mujassam bo'lishi kerak", - degan fikr yuradi. Qiz bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, unga hamisha g'amxo'rlik qilishning ahamiyati yuksak, oqibati xayrlidir. Oysha roziallohu anhodan rivoyat qilinadi: "Bir kuni mening huzurimga ikkita qizini yetaklab bir ayol tilanchilik qilib kirib keldi. Mening huzurimda bitta xurmodan boshqa narsa yo'q edi. Men xurmoni bersam, ayol uni ikkiga ajratdida, ikki qiziga berdi. Rasululloh salollohu alayhi vasallam kirganlarida bu haqda xabar bersam, u zot: "Kim mana shu kabi qiz farzand bilan imtihon qilinsa, qizlarini chiroyli parvarish etsa, uning uchun jahannamdan parda bo'ladi" dedilar. Qiz bola tarbiyasi shunchalar muhimki, inson farzandlari uchun sovg'a olib kelgan bo'lsa uni tarqatishni avvalo qizlaridan boshlashi haqida ko'rsatmalar bor. Qiz bolaning ko'ngli nozik bo'lganligi sababli, ularga alohida



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

mehr ko'rsatiladi va ularga har tomonlama ta'lif tarbiya berishga chaqiriladi. Bu haqida Muhammad salollohu alayhi vasallam shunday deganlar: "Farzandlaringizga ta'lif bering, chunki ular sizniki bo'limgan vaqt uchun tug'ilganlar". Demak har bir ota-onasi bolaning o'z zamonasining ilm-fanini egallashiga befarq qaramasligi kerak. Oilada qiz bola tarbiyasi ayolga, onaga ishonib topshiriladi. Qizlar oila saboqlarini bobo-buvisidan, ota - onasidan, aka - opalaridan, qo'ni - qo'shnilaridan, jamiyki mahalladoshlaridan oladi. Tarbiyada eng mas'uliyatl vazifa onaga topshirilar ekan, onajonlarimiz bu jarayonlarga yanada e'tiborli bo'lib qizlarining sog'lom unib o'sishi, ilm-u hunar egallab, odob-axloq, ibo-hayoda ham boshqalarga o'rnat namunasini ko'rsatadigan qiz bo'lib kamolga yetishiga ahamiyat qaratadilar. Xususan, qiz bolaga ilm o'rgatishdan tashqari, kasb-u hunar egallashiga ko'mak berish, pishirish, tikish-bichish, bola parvarishlash, nayinki, kundalik turmushda zarur bo'lgan bilimlar bilan doimiy tanishtirib borish lozim.

## **Tadqiqot vazifalari:**

Oila, mahalla va maktab hamkorligi asosida o'quvchi-qizlarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish. Tarbiya jarayonidagi eng muhim vosita bu - mehr va shirin so'zlikdir. Bu ikki vosita nozik qalb sohibasi bo'lgan qiz bolaning ko'ngliga yo'l topish, uni avaylab parvarishlash uchundir. Turmushga chiqayotgan qiz bola avvalom bor irodasini tarbiyalay olishi kerak bo'ladi. Xalqimiz tili bilan aytadigan bo'lsak, oilaviy hayotda suv kelsa simirib, tosh kelsa kemiriladi. Oila sirini tashqariga chiqarmaslik oila mustahkamligining saqlashga harakat qilishda irodani ahamiyati beqiyosdir desak xato bo'lmaydi. Oilalardagi hayot tarzi va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziyy ijdolarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo'lmish Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahror Vale tariqatlarida, oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasiga e'tibor, erkak bilan ayol munosabatining o'ziga xosligi, insoniy fazilatlarning shakllanish me'yorlari haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodida (Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o'zbek xalq dostonlari) atroflicha bayon qilinganligi asoslangan.



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

O‘zbek oilalarida juftliklar o’rtasida kuzatiladigan salbiy-axloqiy xususiyatlar o‘rganilganda, er yoki xotinda uchraydigan besabrlik, o‘zgani tushunmaslik, e’tiborsizlik, qizg‘anchiqlik, jizzakilik, uquvsizlik, bilimsizlik, beparvolik, loqaydlik, qo‘pol muomala sababli yuzaga kelishini, ba’zi oilalarda betakalluqlik, didsizlik, uyatsizlik, munofiqlik tufayli namoyon bo‘lishini e’tirof etdilar. Afsuski, real hayotda salbiy sifatlarni (illatlarni) orttirgan yoshlar ham barcha fuqarolar qatorida oila quradilar. Yigit yoki qizdagি avvaldan orttirilgan salbiy-axloqiy illatlar oila barqarorligining o‘zgarishiga, unda ziddiyatlar, kelishmovchiliklar yuz berishiga vahatto oilalarning buzilib ketishiga olib kelishi kuzatildi. Shaxslarda shakllangan salbiyaxloqiy sifatlarni ijtimoiy-psixologik asoslarini o‘rganish, ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash, rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish oilada yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ziddiyatlarning oldini olishga, oilani buzilishlardan saqlab qolib, uni barqarorligini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Qizalarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy muammolarni o‘rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma’lum bo`ldiki, oilaviy muammolar o`zaro munosabatlardagi kelishmovchilik, o`zini tuta olmaslik, yoshlarda muomala madaniyatini shakllanmaganligi, turmush o`rtog`idan mamnun bo`lmaslik, zerikarli hayot, oilaviy burchlarning taqsimlanishi, janjalkashlik, o`ta manmanlik, xulqatvordagi nomukamallik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik kabi oila a’zolariga xos xatti-harakatlar va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqar ekan. Yana shu narsaga amin bo`ldikki inson o`zi ideal insonni izlarkan. Ko`p holatlarda er-xotinlarning bir-biridan qoniqmaslik (ish vazifalaridan norozilik), gumonsirash, tanqid, tanbeh kabilar ham ko`pgina muammolarni keltirib chiqarishini bildik. Oila a’zolari oilada bir-birini o`zaro tushunmaslik, xarakter xususiyatlarining bir-biriga to`g`ri kelmasligida deb bilsalar, ayrimlarida ayol kishi noroziligi, tanbehlari erkakdan o`zini ustun qo`yishi deb bildilar. Bundan shu narsa ma’lum bo`ldiki, oilaviy muammolarning asl sababi oilalarda pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligidadir. Buning uchun mahallalarda bu borada keng qamrovli ishlarni olib borish, mahalla yig`inlarini oilalar bilan hamkorlikda amalga oshirish, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun avvalo ularni onalarini psixologik savodxonligini oshirish, psixolog va pedagoglarga bo`lgan ishonchini oshirish masalalarini hal etish lozim. Qizlarimizni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga oilaviy hayotning chiroyli taraflari



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

bilan bir qatorda hayotning pastbalandliklari ham mavjud ekanligini, turlixil murakkab vaziyatlardan shirin so'zchiroyli muomala bilan yechim topish mumkinligi borasida bilimlarni ham berib borish lozim. Misol uchun ko'pgina oilalarda uchrab turadigan muammolar bilan ham tanishtirib borilsa, o'zлari katta hayotga qadam qo'yganda qiyinchiliklarga duch kelishganda domdirab qolishmaydi, oqilona yo'lini tanlab bu vaziyatdan chiqa olishlari mumkin bo'ladi.

## **Natija va muhokamalar:**

Oila, mahalla va maktab hamkorligi asosida o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

oila-mahalla-ta'lim tizimi hamkorligida qizlarda "kognitiv", "konativ", "xulqiy" omillarni "ijtimoiy faollikni rivojlantirish" texnologiyasi orqali korreksiyalash natijasida ularda ijtimoiy faollikning rivojlanishi aniqlanganligiga oid taklifi O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanalı" DUK qoshidagi "O'zbekiston tarixi" telekanalida tadqiqot mavzusi bo'yicha "Ochiq dars" ko'rsatuvi ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan ("O'zbekiston teleradiokanalı" DUKning 2021-yil 16-iyundagi 02-10-1013-sun ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik omillarining (ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, faol fuqarolik kompetensiyasi, ijtimoiy burch va mas'uliyat) diagnostika qilinishi natijasida "tashkiliy komponent" va "analitik-natijaviy komponent"lar ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi omil ekanligi isbotlanganligiga doir yangiligi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutida "Xotin-qizlarning radikallashuvi, ularning yot g'oyalar va mutaassiblikka berilishining oldini olish masalalari" mavzusida o'tkaziladigan o'quv seminarlari dasturlari ishlab chiqishda amaliy taklif va tavsiyalardan foydalanilgan ("Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 11-fevraldaggi 01-09/1311-sunli ma'lumotnomasi). Natijada qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish samaradorligini amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirilgan;

"ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish" modeli orqali o'quvchi-qizlarda startegik tashxislash, refleksivlik, ixtiyoriylik, umumi manfaatdorlik, empatiya, bиргаликда



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

harakat kabi hayotga samarali moslashuvchanlikning oila-mahalla-ta'lim tizimi negizida takomillashtirilganligiga oid takliflari Respublika ta'lim markazining "ta'limda gender tenglik" moduliga singdirilgan (Respublika ta'lim markazining 2023-yil 6-fevraldagi 01/11-01/2-62-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim sifatini oshirishda va ta'limda gender tenglikni ta'minlashda uslubiy ta'minotga ega bo'lgan; o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning "event" "vitagen" texnologiyalari asosida maqsadli, amaliy, refleksiv va qadriyatli omillarni pedagogik jarayonlarga qo'llash orqali "o'quvchi-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish" modeli ijtimoiy faollikka oid indikatorlarni aniqlash orqali takomillashtirilganligiga oid tadqiqot natijasi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutida "Xotin-qizlarning radikallashuvi, ularning yot g'oyalar va mutaassiblikka berilishining oldini olish masalalari" mavzusida o'tkaziladigan o'quv seminarlari dasturlari ishlab chiqishda amaliy taklif va tavsiyalaridan foydalanilgan ("Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 11-fevraldagi 01-09/1311-sonli ma'lumotnomasi). Natijada qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish samaradorligini amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirilgan.

Oilada qiz bolaga e'tibor muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, qiz bola bo'lajak ona, yor, opa va singildir. Oilada tinchlik-totuvlik, saramjon-sarishtalik, ozodalik, farzandlar tarbiyasi, hattoki, sog'lom muhit ham xotin-qizlar, demakki, buvijonlarimiz, onalarimiz, singillarimiz, kelinlarimiz zimmasiga tushadi. Har bir ota-onas o'z bolasiga sog'lom tarbiya berib voyaga yetkazsa, farzandning mustaqil hayotga toza ruh, olam-olam orzu-intilishlari bilan qadam qo'yayotganini ko'rsa, uning hayoti ma'no kasb eta boshlaydi. Farzandlarni to'g'ri tarbiyalash, ayniqsa jismoniy, ma'naviy fazilatlarni ularda tarbiya qilish doimo ota-onaning asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Har bir xonadonda qiz bola farzand dunyoga kelsa, beshikdan to balog'at yoshiga yetguncha uni to'g'ri tarbiyalash, oilaga yo'naltirish, oila va karera maqsadlarini uzviy bog'lash, har bir ota-onaning fikrini "qiz bola – boshqa xonadonning fayzi", - degan xayol uning voyaga yetgunicha va shunihgdek, turmushga bergunga qadar tark etmaydi. Shuning uchun hozirgi kunda turmushga chiqayotgan yosh qizlarning zimmasiga katta ma'suliyat yuklatiladi. Ushbu ma'suliylatlardan biri bu ma'naviy boylik, saramjon-sarishtalik, faxmfarosat va albatta gigiyenik jihatdan ozodalikdir. Xalqimizda ushbu fazilatlar "har bir qiz



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

bolada mujassam bo‘lishi kerak”, - degan fikr yuradi. Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy tamoyillar asosida qizlarni oilaviy hayotga, jamiyatga tayyorlash dolzarb masaladir. Oilaviy hayotga tayyorlash masalalari inson omili bilan bog‘liq bo‘lib, qizlarning ma’naviy, ruhiy, gigiyenik va uy tutishlik, tarbiyachi bo‘lishlik vazifalari majmuidan iboratdir. Shu bilan birga, muloqot qoidalari, oilada e’tiqod, burch, adolatparvarlik mezonlari, shukr, sabr va qanoat, sadoqat va vafo, kamtarlik kabi axloqiy-ma’naviy xususiyatlarni o‘z mazmuniga qamrab oladi. Mana shu maqsad va vazifalarlardan kelib chiqqan holda “Turmushgachiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash” yo‘nalishi bo‘yichao‘quv dasturi yaratildi. “Turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash” yo‘nalishi o‘quv kursining maqsadi – turmushga chiqmagan qizlarni oilaviy va ijtimoiy hayotga psixologik-pedagogik moslashuviga ko‘maklashish, ularning jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashishga, o‘z o‘rniga ega bo‘lishlariga tayyorlash, ularda ilmga intilish motivatsiyasini hosil qilish, oilaviy hayot asoslari, oila psixologiyasi, iqtisodi, ma’naviyati, oila gigiyenasi, reproduktiv salomatlik, kiyinish madaniyati va odobi ro‘zg‘orshunoslik asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish va rivojlantirish, barcha sohalarda turg‘un ko‘nikmalar hosil qilishdan iboratdir. “Turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlash” yo‘nalishi kursining vazifalari:

- O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining mazmun va mohiyatini ular ongiga singdirish;
- turmushga chiqmagan qizlarning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda va ijtimoiy zaruriyat asosida ular ongiga oilaviy turmush asoslarini singdirish;
- respublikamiz tuman va shaharlarida “Oila – muqaddas”, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat”, “Oila – jamiyat va davlat himoyasida” va “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g‘oyalari asosida nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo‘yicha tizimli tayyorlash maqsadida ”Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari” tashkil etish orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;
- oilada turmush asoslari va jamiyat hayotiga integratsiyasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni maqsadli shakllantirishdan iboratdir Qizlarda reproduktiv yosh davri



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

16 yoshdan boshlanadi va 46-49 yoshgacha davom etadi. Bu davrda qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilada, ta'lim dargohlarida, mahallalarda bilim va ko'nikmalar beriladi. Oila tarbiyasi – ijtimoiy tarbiyaning bir turi bo'lib, oilaning barcha a'zolari unda faol ishtirok etadilar, bir-birlariga o'z bilim, tajribalarini o'rgatadilar. Oila tarbiyasi bir umr davom etadigan jarayondir. Oilalarni tinch bo'lishi uchun ma'naviy salomatlik tushunchasini reproduktiv yoshdagagi ayollarga singdirish lozim. Ma'naviy salomatlik insonning mafkuraviy, ruhiy, hissiy va tibbiy holatlari bilan bog\_liq bo\_lib, bu holatlar hayotda sog'lom turmush tarzi ma'rifati orqali namoyon bo'ladi. Bernard Shouning ta'kidlashicha: —Tananing salomatligi faqatgina ruhning salomatligiga bog`liq! Aksincha bo'lishi mantiqqa to`g`ri kelmaydi. Reproduktiv yoshdagagi ayollarni oilaviy hayotga ruhan sog'lom qilib tarbiyalashimiz darkor. Shundagina oilalar tinch va farovon bo'ladi. Balog`at yoshiga qadam qo`ygan har bir qiz bola shirin orzulari daryosida oila degan kemani boshqarishni niyat qilishi tabiiy hol hisoblanadi. Ana shu kichik, ammo ulkan yukni tortuvchi kemani boshqara olishiga qanchalik tayyorligiga o`zini ishonchi yetadimi yoki yo`qmi eng asosiy masala ana shunda desak xato bo`lmaydi. Oilaga tayyorligiga o'z ishonchni baholashdan qiyin ish bo`lmasa kerak degan savolga ba'zi qizlarimiz —Ovqat tayyorlashni, pishiriqlarni pishirishni, kir yuvish, dazmol qilish, uylarni tozalash, mehmon kutish va qolaversa, uydagilarning qosh-qovog`iga qarashni bilsam bo`ldi, uyog`i bir gap bo`lar, deb o`ylasalar adashadilar. Qiz bola avvalom bor oilaga ruhan tayyor bo`lsa yuqoridagi beka sifatidagi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi qiyin kechmaydi. Qizlarni ma'naviy kamol toptirish uchun ular ruhiyatiga mas'ullik, burch, uyat, mehribonlik, fidoyilik, vafo kabi psixologik xislatlarni singdirib borish lozim. Qizlarda, ayol kishida, birinchi navbatda, aqlu farosat, idroku nazokat bo'lishi kerak. Ana shu bori bilan u past-balandni, achchiq-chuchukni, bor-yo'qni, oila sharoitini, imkoniyatlarni faxmlay oladi, idrok etadi, aql-xushi bilan ish yurgizib, kam-ko'stlarni bartaraf qiladi ZOTAN ayollarga xos bo'lgan o'lmas nazokat atrofdagilarga xamisha qanot bag'ishlab kelgan Hayolilik – o'zbek ayollarga xos bo'lib, ehtiyyotkorlik, iffat, uyalish, or-nomus, shon-sharafini, qadr-qimmatini saqlashni bildiradi. Abdulla Avloniy aytganidek: «Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shu ma'naviy nuring ziyofiga muhtojdir... Iffatning pardasi vijdonning niqobi hayodir» Ayolning nazokati uning nozik fe'l-atvorida, xulqining



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

latifligida, odob, tarbiya va sadoqatida namoyon bo‘larkan. Bunday reproduktiv yoshdagi ayollar jamiyatda ham, oilada ham nozik gul misol ardoqlanib, e’zozlanadilar. Uy ishlari, uydagи insonlarga qarash bir hunar bo`lib, bu ayolarning vazifasi bo`lgani uchun yosh qizlarning birinchi galda uni o`rganishlari lozimdir. Milliy urf-odatlarimizga ko`ra ko`pgina hollarda qizlarni oila qurishiga uni qurshab turgan ijtimoiy muhitning ta`siri katta bo`ladi.

## **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda sog‘lom va farovon turmushni shakllantirishda oila bekasini rolini chuqur anglab etgan qiz bolagina ruhan oila qurishga tayyor bo‘ladi. Shuning uchun turmush qurishdan oldin bir narsani o‘ylab ko‘ring. Er bosh bo‘lsa ayol bo‘yin, shu bo‘yin boshni qayoqqa bursa bosh o‘sha yoqqa qaraydi. Agar boshni to‘g‘ri tutib, kerakli tomonga yo‘naltira olgan bo‘yini duru gavharlar bilan bezashadi. O‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda va davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu kabilarni hisobga olgan holda bu boradagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishning ijtimoiy pedagogik jihatlarini o‘rganish hamda o‘quvchi-qizlar ijtimoiy faolligi muammosini alohida tadqiq etish lozim. O‘quvchi-qizlarga muvaffaqiyatli ijtimoiylashishlariga yordam berish, ijtimoiy faollikka oid nazariy hamda amaliy bilimlarni berish, bu jarayonda oila, mahalla va mакtab hamkorligini ta’minlash ijtimoiy pedagogika sohasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak bir oilani sevimli bekasi, epli kelini bo‘lish o‘z qo‘lingizda ekan, farovon turmush qura olishingizga avvalom bor o‘zingizni ishontiring va ishoning. Shundagina siz baxtingiz sari ilk katta qadam tashlagan bo‘lasiz.

## **Foydalanilganabiyotlar:**

1. Aripova S.M., Bo‘rrixo‘jayeva H.S. Sog‘lom avlodning tibbiy- ijtimoiy asoslari o‘quv qo‘llanma. «Fan va texnologiya », Toshkent-2016 29 bet
2. Musurmonova O. Yulchiyeva D. Turmushga chiqmagan qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga tayyorlashl yo\_nalishi bo\_yicha o\_quv-uslubiy majmua T. 2021 90 bet
3. Najmidinova Karimaxon Usmonovna Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> January, 2025

---

axloqiy madaniyatning o'rni – T.: «Adolat», 2016. 35-61 bet

4. Mualliflar jamoasi. Xotin-qizlar ensiklopediyasi. —O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashiryoti Toshkent 2012-480 bet 28- 33bet.

5. Shoumarov.G‘.B tahriri ostida — Oila psixologiyasi SHARQ nashiryoti matbaa aksiyadorlik komponyasi bosh tahriryati Toshkent 2008 yil 3 bet

6. To'rayeva O. Oila muqaddas qo'rg'on T. «CHASHMA PRINT» 2009 4- bet

7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi Aliy Nazimo qizlar Tarbiyasi 2 bet

8. <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/21662-qizlarni-oilaga-tayyorlash.html>